INGLIZ TILIDA YOZUV KO‘NIKMALARINI LOYIHAVIY FAOLIYAT TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHGA OID TAJRIBA

Mirzokulova Xursanoy Ne'matjonovna

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Til orgatish kafedrasi katta oqituvchisi

Abstract. This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of developing writing skills in English language teaching through project-based learning technology. Within the framework of the study, methodological approaches aimed at enhancing students’ written communication, independent thinking, and creative expression skills through project-based methods were examined. In addition, advanced practices of integrating project-based activities into English language classes were analyzed, and their effectiveness was evaluated on a scientific basis.

Key words: English language teaching, writing skills, project-based learning technology, independent thinking, creative writing, methodological approach.

Annotasiya. Mazkur ilmiy maqolada ingliz tili ta’limida yozuv ko‘nikmalarini loyihaviy faoliyat texnologiyasi orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida loyihaviy yondashuv asosida talabalar yozma nutqni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy ifoda ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik usullar o‘rganilgan. Shuningdek, loyihaviy faoliyatni ingliz tili darslariga integratsiya qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlil qilinib, ularning samaradorligi ilmiy asosda baholangan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili ta’limi, yozuv ko‘nikmalari, loyihaviy faoliyat texnologiyasi, mustaqil fikrlash, ijodiy yozuv, metodik yondashuv.

Аннотация. В данной научной статье анализируются теоретические и практические аспекты развития навыков письма в обучении английскому языку посредством технологии проектной деятельности. В рамках исследования были изучены методические подходы, направленные на развитие у студентов письменной речи, самостоятельного мышления и творческого самовыражения на основе проектного подхода. Кроме того, были проанализированы передовые практики интеграции проектной деятельности в занятия по английскому языку и научно оценена их эффективность**.**

Ключевые слова: Обучение английскому языку, навыки письма, технология проектной деятельности, самостоятельное мышление, творческое письмо, методический подход.

KIRISH(INTRODUCTION)

Yozish ko‘nikmasi bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya shiddat bilan rivojlanayotgan davrda shaxsning kasbiy salohiyatini belgilovchi eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Axborot almashinuvi hajmi va sur’atlarining jadal o‘sishi, xalqaro professional aloqalarning kengayishi, kompyuter va internet texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida yozma muloqot inson faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, xorijiy tillarda, jumladan ingliz tilida yozish ko‘nikmasi nafaqat ta’lim jarayonida, balki professional, ilmiy va madaniy sohalarda ham yuqori kasbiy ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili xalqaro muloqot, fan, texnologiya va biznesning asosiy vositasiga aylangan sharoitda, ushbu tilda yozma ifoda qilish qobiliyati zamonaviy mutaxassis uchun zaruriy talab hisoblanadi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, yozish ko‘nikmasi ingliz tilini o‘rganayotgan talaba uchun eng murakkab jarayonlardan biridir. Chunki yozma nutq nafaqat grammatik va

leksik bilimni, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, tizimli yondashuv va ijodiy ifodani ham talab qiladi. Talabalar insho, esse yoki loyiha asosidagi yozma topshiriqlarni bajarayotganda faqat tildagi bilimlariga emas, balki dunyoqarashi, madaniy saviyasi va boshqa fanlardagi tushunchalariga ham tayanadi. Shu bois, yozma nutqni shakllantirish o‘qituvchidan yuqori darajada metodik tayyorgarlik, sabr va innovatsion yondashuvni talab etadi[1]. Yozish ko‘nikmasini o‘rgatishning asosiy maqsadi - talabani yozma muloqot orqali o‘z fikrini aniq, mantiqiy, izchil va madaniyatli tarzda ifoda etishga o‘rgatishdir. Bu jarayon nafaqat lingvistik, balki kognitiv, ijtimoiy va madaniy komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Yozuv jarayoni orqali talaba o‘qilgan matnlardan ma’lumot olish, uni tahlil qilish, fikrni qayta ishlash va o‘z so‘zlari bilan ifodalash malakasini egallaydi. Natijada, yozuv o‘quv jarayonining faqat natijasi emas, balki bilimni o‘zlashtirish vositasiga ham aylanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida loyihaviy faoliyat texnologiyasi yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu texnologiya o‘quvchilarning faol ishtirokiga, mustaqil fikrlashiga va ijodiy izlanishiga asoslanadi. Loyihaviy faoliyat jarayonida talabalar real hayotga oid muammolarni hal etish uchun ingliz tilidan vosita sifatida foydalanadilar, ma’lumot izlaydilar, tahlil qiladilar va o‘z xulosalarini yozma shaklda ifodalaydilar. Shu tariqa, yozma topshiriqlar sun’iy akademik mashqlardan chiqib, ma’noli, maqsadga yo‘naltirilgan va kommunikativ jihatdan ahamiyatli faoliyatga aylanadi. Loyihaviy faoliyat texnologiyasi o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash, maqsadni aniqlash va rejalashtirish, fikrni mantiqan asoslash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Eng muhimi, bu texnologiya yozish jarayonini shunchaki grammatik mashq emas, balki ijodiy va tahliliy faoliyat sifatida qarash imkonini beradi. O‘qituvchi bu jarayonda yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va tahlilni boshqaruvchi rolni bajaradi, talaba esa o‘z o‘rganish jarayonining markaziga aylanadi. Mazkur yondashuv ayniqsa oliy ta’lim tizimida dolzarbdir, chunki talabalarning yozuv kompetensiyasini shakllantirish ularning keyingi akademik va kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir[2]. Shuningdek, yozuv ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida loyihaviy faoliyatning qo‘llanilishi talabaning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi va o‘z fikrini aniq hamda madaniyatli tarzda ifoda etishga o‘rgatadi.

Dunyodagi mashhur yozuvchi va faylasuflardan biri **Stephen King** o‘zining **“A Memoir of the Craft”** *(“Ijod san’ati xotiralari”)* asarida shunday degan edi: *“Yaxshi yozuvchi bo‘lish uchun, avvalo, ko‘p o‘qish va ko‘p yozish kerak. Boshqa iloji yo‘q”.* Ushbu fikr yozuv jarayonining mohiyatini chuqur anglatadi yozuvchilik bu tug‘ma iste’dod emas, balki uzluksiz o‘qish, tahlil va amaliy mashq orqali shakllanadigan mehnat mahsulidir. Kingning bu fikridan anglash mumkinki, yozma nutq inson tafakkurining, dunyoqarashining va ichki boyligining ifodasidir. Inson qancha ko‘p o‘qisa, shuncha ko‘p fikr, obraz va g‘oya to‘playdi; bu esa uning yozma ifodalarida chuqurlik, mantiqiylik va estetik uyg‘unlikni ta’minlaydi. Yozuv bu nafaqat so‘zlarni ketma-ketlikda joylashtirish, balki dunyoni anglash, o‘z kechinmalarini tahlil qilish va ularni boshqalarga yetkazish san’atidir. Shu bois, Stephen King **“ko‘p o‘qish”**ni yozuvchilikning asosi deb biladi. Chunki o‘qish orqali inson tilni, tuyg‘uni va g‘oyani o‘rganadi. Ma’naviy boylikka esa, yozuvchi ta’kidlaganidek, faqat mutoala, ya’ni muntazam o‘qish va fikrlash orqali erishiladi[3]. O‘qish bu yozuvchining ichki laboratoriyasi, u yerda so‘zlar pishadi, fikrlar sinovdan o‘tadi, uslublar shakllanadi. Shunday ekan, yozuvchi uchun har bir kitob yangi tajriba, har bir yozilgan satr esa o‘zini anglash yo‘lida qo‘yilgan navbatdagi qadamdadir.

Buyuk adib **Ernest Hemingway** esa yozuvda samimiyatning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. U shunday degan edi: *“Yozishda eng muhimi samimiy bo‘lish. So‘zlaringiz qalbingizdan chiqmasa, o‘quvchi ham uni his qila olmaydi”.* Bu fikr yozuvchilikning ruhiy jihatini ochib

beradi. Zero, yozuvchi faqat bilimi yoki tajribasi bilan emas, balki yurakdan chiqqan his-tuyg‘ulari bilan ham yozadi. Samimiyat bu har qanday badiiy yoki ilmiy matnning hayot manbai. Yozuvchining qalbi orqali o‘tgan so‘zgina o‘quvchining qalbiga yetadi. Shuning uchun Hemingway uchun yozuv bu *“hissiyotlar va so‘zlar o‘rtasidagi sadoqatli suhbat”* hisoblanadi. Yozma nutqda samimiyat, tabiiylik va halollik fikrni tirik qiladi. Yozuvchi o‘zini yashirmasa, maska taqmasa, o‘quvchi uni darhol sezadi. Shuning uchun har bir yozuvchi, talabami yo o‘qituvchimi, yozish jarayonida ichki ovoziga quloq solishi, qalbida sezganini ifoda etishi zarur. Fikrni yurakdan his etib yozilgan matn, hatto grammatik jihatdan oddiy bo‘lsa ham, o‘quvchiga ta’sir qiladi, chunki unda hayotning o‘zi aks etadi. Hemingwayning bu g‘oyasi yozuvni shunchaki til mashqi emas, balki ruhiy tajriba sifatida talqin etadi. Yozuvchi uchun har bir so‘z mas’uliyat, har bir jumla ichki dunyosining aksidir.

Shuningdek, amerikalik yozuvchi va professor **Anne Lamott** o‘zining **“Some Instructions on Writing and Life”** maqolasida shunday degan edi: *“Mukammal birinchi qoralama bo‘lmaydi. Muhimi boshlash va fikrlarni qog‘ozga tushirish”.* Bu fikr yozuv jarayonining eng muhim tamoyilini ifodalaydi: yozuv bu mukammallik sari yo‘l, natija emas, jarayondir. Ko‘plab yozuvchilar yoki talabalar yozishni boshlashdan qo‘rqadilar, chunki ular darhol mukammal matn yozish istagida bo‘lishadi. Biroq Lamott ta’kidlaganidek, yozuv jarayonining asl go‘zalligi aynan xatolarda, o‘zgarishda, qayta ko‘rib chiqishda namoyon bo‘ladi. Yozish bu ichki fikrlarni qog‘ozga tushirish, ularni so‘z orqali shakllantirish, keyin esa tahlil qilish jarayonidir. Birinchi qoralama; fikrning tug‘ilishi, ikkinchisi; uning o‘sishi, uchinchisi esa mukammallikka yo‘lidir. Yozuvchining mahorati aynan shu bosqichlarda namoyon bo‘ladi: u o‘z fikrini qayta ko‘radi, ortiqcha so‘zlarni qisqartiradi, jumlalarni yanada tiniq qiladi, g‘oyani aniqroq ifodalaydip. Bu jarayon davomida yozuvchi o‘z tafakkurini ham sayqallaydi, til bilan o‘ylashni o‘rganadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (DISCUSSION AND RESULTS

Yozish ko‘nikmasi nafaqat til o‘rganishning asosiy tarkibiy qismi, balki talabalarning ingliz tilidagi bilimlari, tafakkuri va kasbiy dunyoqarashlarini baholash mezoni sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yozish jarayonida inson o‘z fikrini aniq, mantiqan izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantiradi. Shu bilan birga, yozish orqali o‘quvchi yoki talaba o‘qib tushungan ma’lumotlarini mustahkamlaydi, tahlil qilishni o‘rganadi va yangi bilimlarni amaliy qo‘llashga o‘tadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, yozish faoliyati o‘qish ko‘nikmasini chuqurlashtiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Yozish o‘quvchidan o‘qigan matnni qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va uni o‘z nuqtai nazari asosida ifodalashni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qib tushunish jarayonini faol, maqsadli va samarali qiladi. Ta’lim sohasi tadqiqotchisi **Sara Shvarts “O‘qish va yozishni o‘rgatish o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida 3 ta ibora”** nomli asarida shunday deydi: *“Bolalarga murakkab jumlalar yozish va turli xil matnlarni tuzishga o‘rgatilganda, ularning turli xil yozuvlarni o‘qish va tushunish qobiliyati ham yaxshilanadi”*. Bu fikr shuni anglatadiki, yozish ko‘nikmasi faqat ifoda vositasi emas, balki o‘qish orqali olinadigan bilimni chuqurroq anglashga yordam beruvchi muhim o‘quv jarayonidir[4]. Shuning uchun ham zamonaviy ta’lim tizimida yozish faqat grammatikani o‘rganish vositasi sifatida emas, balki o‘qib tushunish, fikrlash va tahlil qilishni rivojlantiruvchi metodik yondashuv sifatida qo‘llanilmoqda. Talabalarga yozishni o‘rgatish, ularni muntazam yozma faoliyatga jalb etish o‘qishdagi faollikni oshiradi. Masalan, matn haqida yozish o‘quvchilarning o‘qiganlarini mustahkamlashga, asosiy g‘oyalarni ajratishga va mazmuniy tahlil ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Yozish orqali talaba o‘qigan ma’lumotni qayta ishlab, uni o‘z so‘zlari bilan ifodalaydi, bu esa chuqurroq tushunishni ta’minlaydi. Yozish faoliyatini o‘qish jarayoni bilan birlashtirish samarali natija beradi. Chunki o‘quvchi o‘qigan matndan keyin yozma topshiriqlar bajarganda masalan, tahliliy insho, muhokama, xulosa yoki fikr bildirish shaklida u o‘z bilimini mustahkamlaydi, til strukturasi va leksikasini chuqurroq

o‘zlashtiradi. O‘quvchilarning o‘qib tushunish qobiliyatini oshirish, fanlararo tafakkurni kengaytirish va til orqali fikrlashni shakllantirishda yozishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki nutqdan keyin yozish insonning asosiy muloqot vositasiga aylanadi.

Ta’lim jarayonida loyihaviy faoliyatning qo‘llanishi yozish ko‘nikmasini amaliy yo‘l bilan rivojlantirishda ayniqsa samaralidir. Chunki bu jarayon talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, talabalar kichik guruhlar yoki yakka tartibda ingliz tilida kasbiy yo‘nalishdagi maqola, taqdimot yoki tahliliy hisobot tayyorlaydilar. Ushbu jarayon davomida ular nafaqat yozish texnikasini, balki mantiqiy fikrlash, ma’lumotni tanlash va qayta ishlash, til imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini ham o‘zlashtiradilar[5].

Loyihaviy faoliyat odatda bir necha izchil bosqichlardan iborat bo‘ladi:

Muammoni aniqlash bosqichida talabalar tanlangan mavzu doirasida dolzarb masalani aniqlab oladilar. Bu jarayon ularni mustaqil izlanishga undaydi, mavzuga ijodiy yondashishni o‘rgatadi va yozma ishning maqsadini aniq belgilashga yordam beradi.

Ma’lumot to‘plash va tahlil qilish bosqichida talabalar ingliz tilidagi manbalarni o‘rganadilar, turli maqolalar, kitoblar va internet resurslaridan foydalangan holda mavzuga oid dalillarni yig‘adilar. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, axborotni tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish malakasini mustahkamlaydi.

Matn yozish bosqichi esa olingan ma’lumotlarni tartibga solish, tahlil qilish va mantiqan izchil bayon etish jarayonini o‘z ichiga oladi. Talabalar ingliz tilida tahliliy, izlanish yoki insho shaklidagi matnlar yozadilar. Shu orqali ular yozish uslubi, jumla tuzilishi, bog‘lovchi vositalardan foydalanish, fikrni izchil ifodalash kabi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar.

Tahrir va taqdimot bosqichi esa yozma ishni yakuniy ko‘rinishga keltirishni, imloviy, grammatik va uslubiy jihatdan tekshirishni nazarda tutadi. Talabalar o‘z ishlarini guruh oldida taqdim etadilar, savollarga javob beradilar va fikr almashadilar. Bu bosqich ularni muloqotga, o‘z fikrini himoya qilishga, shuningdek, tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri qabul qilishga o‘rgatadi.

Mazkur jarayon natijasida talabalarda yozish ko‘nikmasi yanada mustahkamlanadi, ular mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, jamoada ishlash, muloqot qilish va o‘z fikrini asoslab himoya qilish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydilar. Eng asosiysi, bu faoliyat natijasida talaba faqat ingliz tilini biluvchi emas, balki uni real hayotiy vaziyatlarda, kasbiy faoliyatda hamda ilmiy yozuvlarda samarali qo‘llay oladigan, faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida loyihaviy faoliyatni yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirish talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga va o‘z fikrini yozma shaklda aniq ifodalashga o‘rgatadi. Bu jarayon nafaqat ingliz tilini o‘rganish, balki uni amaliyotda qo‘llash, tahliliy yondashuvni shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Natijada, talaba tilni bilish bilan cheklanmay, uni real kommunikativ va ilmiy vaziyatlarda samarali qo‘llay oladigan, zamonaviy ta’lim talablariga mos, faol shaxs sifatida yetishadi. Yozish faoliyati o‘quvchilarning o‘qish, eslab qolish va tahlil qilish qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Ularning har bir yozma ishi mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi mashq sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, yozish ko‘nikmasi talabaning tilni puxta egallashi va uni hayotiy hamda kasbiy jarayonlarda samarali qo‘llashida muhim omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muxayyo, R. (2023). DEVELOPING S TUDENT S 'WRITING SKILLS IN TEACHING ENGLISH. Gospodarka i Innowacje., 32, 192 195.
2. Nabijanovna, R. M. (2022). PEDAGOGICAL AND COMMUNICATIVE SKILLS.
3. Muxayyo, R. (2023). METHODOLOGY TO DEVELOPMENT OF STUDENTSWRITING SKILL THROUGH TECHNICAL TEXTS. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 9, 92-94.
4. Rakhmanova Mukhayyo Nabijanovna. (2024). INCREASING ENGLISH LANGUAGE KNOWLEDGE FROM READING COMPREHENSION EXERCISES. World Bulletin of Social Sciences, 31, 42-44. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3818
5. Абдурахмонов, Ш., Тураев, Н. С., & Солиев, Д. З. (2024). ПЕНОПЛАСТДАН ГЕОМЕТРИК ЖИСМЛАР ^ИЩИБ БЕРУВЧИ АСБОБЛАР. Строительство и образование, 3(1), 78-83.